



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 29-yanvar

32-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Paxta xomashyosini yetishtirish va sotishda bozor mexanizmlarini qo‘llashni izchil davom ettirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 17-yanvardagi PF-7-son Farmoni ijrosi haqida”gi 29-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Paxta xomashyosini yetishtirish va sotishda bozor mexanizmlarini qo‘llashni izchil davom ettirish chora-tadbirlari to‘g‘risida ” 2025-yil 17-yanvardagi PF-7-son Farmoni hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 17-yanvardagi 29-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta‘minlash, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Paxta xomashyosini yetishtirish va sotishda bozor mexanizmlarini qo‘llashni izchil davom ettirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 17-yanvardagi PF-7-son Farmoni ijrosi haqida”gi 29-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi PF-7-son Farmoni bilan:

Belgilanishicha, 2025-yil paxta hosildan boshlab:

O‘zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasi (keyingi o‘rinlarda - Birja) kalendar yilining 1-noyabr kunida (2025-yil hosili uchun 1-fevralda) paxta tolasining Nyu-York birjasidagi fyuchers kotirovkalarining oxirgi 6 oydagi o‘rtacha kotirovkasidan kelib chiqqan holda kelgusi yil hosili uchun paxta xomashyosining boshlang‘ich narxini (birinchi nav, ikkinchi sinf) aniqlab, Birjaning rasmiy veb-saytida e‘lon qilishi; mulkchilik shaklidan qat‘iy nazar barcha paxta xomashyosi yetishtiruvchi xo‘jaliklar (keyingi o‘rinlarda - xo‘jaliklar) va klasterlar hamda paxta xomashyosini qayta ishlash va ip-kalava ishlab chiqarish zanjiriga ega to‘qimachilik korxonalari (keyingi o‘rinlarda - qayta ishlovchilar) o‘rtasida paxta xomashyosi yetkazib berish bo‘yicha oldi-sotdi (fyuchers, forward va spot) shartnomalari (keyingi o‘rinlarda - shartnomalar) Birjaning paxta xomashyosi seksiyasida har bir hudud (Qoraqalpog‘iston Respublikasi yoki tegishli viloyat) bo‘yicha alohida o‘tkaziladigan savdolarida tuzilishi; xo‘jaliklar hamda qayta ishlovchilar o‘rtasida tuziladigan shartnomalar tomonlarning erkin tanlovi asosida o‘tkaziladigan birja savdolari orqali xo‘jaliklar tomonidan yetkazib berish muddatlarini hamda bir yoki bir nechta xaridorni mustaqil ravishda tanlash orqali rasmiylashtirilishi;

Birjada barcha shartnomalar “Agroplatforma” axborot tizimi bilan integratsiya qilingan ma'lumotlar bazasida mavjud bo'lgan xo'jaliklar va qayta ishlovchilar o'rtasida tuzilishi;

O'rnatilgan tartibga muvofiq, 2025-yil paxta hosilidan boshlab:

a) Fyuchers shartnomalari kalendar yilning 1-noyabridan keyingi yilning 1-iyunigacha xo'jaliklar va qayta ishlovchilar o'rtasida birjada erkin shakllanadigan, biroq e'lon qilingan boshlang'ich narxdan past bo'lmagan narxda tuzilishi, Bunda fyuchers shartnomasi Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llabquvvatlash jamg'armasi (keyingi o'rinlarda - Jamg'arma) resurslari hisobidan imtiyozli kredit ajratishga asos bo'ladi va imtiyozli kredit e'lon qilingan boshlang'ich narxdan kelib chiqib ajratilishi;

b) Forvard shartnomalari kalendar yilning 1-noyabridan keyingi yilning 1-martigacha xo'jaliklar va qayta ishlovchilar o'rtasida o'zaro kelishilgan narxlarda tuzilishi;

Bunda paxta xomashyosini yetishtirish xarajatlari xo'jaliklar va qayta ishlovchilarning o'z mablag'lari yoki tijorat kreditlari hisobidan amalga oshirilishi;

d) spot shartnomalari real vaqt rejimida omborda saqlanayotgan paxta xomashyosi hajmiga xo'jaliklar va qayta ishlovchilar o'rtasida o'zaro kelishilgan narxda tuzilishi;

xo'jaliklarga Jamg'arma resurslari hisobidan imtiyozli kreditlar ajratishda bankka kredit qiymatining 50 foizi miqdorida likvidli mol-mulk taqdim etilishi; spot shartnomalari rasmiylashtirishni rejalashtirgan xo'jaliklar har hosil yilining 1-martigacha (2025-yil hosili uchun 1-maygacha) mavjud paxta xomashyosini saqlash omborlari (maskan) belgilangan talablarga javob berishi yuzasidan Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi va boshqa tegishli idoralar tomonidan berilgan xulosani yoki xuddi shunday xulosasi mavjud omborlarda vaqtincha saqlash bo'yicha tuzilgan ijara shartnomasini “Agroplatforma” axborot tizimiga kiritilishi;

f) saqlash omborlari yoki ijara shartnomalari mavjud bo'lmagan xo'jaliklar o'zi yetishtiradigan paxta xomashyosi bo'yicha har hosil yilining 1-martigacha forvard yoki 1-iyunigacha fyuchers shartnomalari rasmiylashtirishi; Belgilanishicha, 2025-yil hosilidan boshlab:

paxta xomashyosini o'z mablag'lari va tijorat kreditlari hisobidan yetishtirib, Birjada sotgan xo'jaliklarga shakllangan hisobvara-q-faktura qiymatining 10 foizi miqdorida subsidiya ajratilishi; paxta xomashyosini yetishtirish uchun olingan imtiyozli kreditlarni hosil yilining yakuniga (tegishli yilning 31-dekabriga) qadar qaytargan xo'jaliklarga ushbu kreditlar bo'yicha to'langan foiz to'lovlarning

4 foizlik punktini subsidiya sifatida qaytarib berish tartibi joriy etilishi;

mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha tadbirkorlik subyektlariga, shu jumladan, fermerlar hamda kooperativlarga paxta xomashyosini saqlash va birlamchi (tegirmon usulida) qayta ishlash xizmatlarini tashkil etish uchun zarur bo'lgan asbobuskunalarni sotib olishga Jamg'arma resurslari hisobidan tijorat banklari tomonidan Markaziy bankning asosiy stavkasida (shundan 2 foiz bank marjasi) uch yil muddatga 6 oylik imtiyozli davr bilan kreditlar ajratilishi; bunda tadbirkorlik subyektlari faqat paxta xomashyosini qayta ishlab berish bilan shug'ullanishi va paxta xomashyosini sotib olish huquqiga ega bo'la olmasligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 19-iyundagi “Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash xarajatlarini moliyalashtirishning uzluksizligini ta'minlash

to'g'risida"gi PF-98-son Farmoniga asosan Jamg'arma xarajatlarini moliyalashtirish uchun Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasidan Iqtisodiyot va moliya vazirligiga ajratilgan kreditlarning qoldiq qismini qaytarish muddati 5 yilga uzaytirilganligi;

Qishloq xo'jaligi vazirligi uch oy muddatda:

Paxtachilik kengashi hamda O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi bilan birgalikda paxta xomashyosini navlar bo'yicha qabul qilishning davlat standartlariga o'zgartirishlar kiritishi; paxta va g'alla qabul qilish maskanlaridagi elektron tarozidagi ma'lumotlar to'g'ridan-to'g'ri Qishloq xo'jaligi vazirligining "Hosil qabuli" axborot tizimiga uzatilishini yo'lga qo'yishi;

Qishloq xo'jaligi vazirligi Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan birgalikda "Hosil qabuli" axborot tizimini takomillashtirish bo'yicha ishlarni yakuniga yetkazish maqsadida klasterlar, kooperativlar va to'qimachilik korxonalariga qabul maskanlarini kuzatuv kameralari bilan jihozlash, dasturiy yechimlarni joriy etish, uzluksiz internet va quvvat manbalarini o'rnatish kabi kompleks xizmatlar taqdim etishi;

Qishloq xo'jaligi vazirligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Birja, manfaatdor vazirlik hamda idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda donni qabul qilish va omborlardan chiqarish, shuningdek, birja savdolarida sotish jarayonlari tezkor va shaffof amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida tegishli axborot tizimlarini Qishloq xo'jaligi vazirligining "Hosil qabuli" axborot tizimi bilan integratsiya qilishi;

Qishloq xo'jaligi vazirligi:

a) Savdo-sanoat palatasi va O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi bilan birgalikda har yili avgust oyida paxta xomashyosini qabul qiluvchi korxonalarining (klasterlar, kooperatsiyalar) paxta xomashyosini qabul qilish bilan shug'ullanuvchi xodimlarini elektron tarozi va "Hosil qabuli" axborot tizimi bilan ishlash uchun qayta tayyorlab borishni tashkil etishi;

b) Suv xo'jaligi vazirligi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi hamda viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda: dastlabki bosqichda sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanuvchi subyektlar yerlari tuproqlarining tahlil ma'lumotlari, tuproq holati, xossa-xususiyatlari, unumdorligi, gumus va ozuqa miqdorlari, sho'rlanishi, eroziyasi to'g'risidagi batafsil ma'lumotlarni aks ettirgan tegishli xaritalar hamda har bir kontur va ekin turiga qarab ilmiy asoslangan tavsiyalarni o'z ichiga oluvchi "tuproq-pasporti" ning 2026-yil yakuniga qadar ishlab chiqilishi; 2027-yil hosilidan boshlab, ekinlarni joylashtirish, agrotexnik tadbirlarni o'tkazish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini moliyalashtirish jarayonlari "tuproq pasporti" ga muvofiq ilmiy asosda amalga oshirilishi;

Belgilanishicha, 2025-yil 1-apreldan boshlab: paxta xomashyosi va undan tayyorlangan barcha turdagi mahsulotlar bo'yicha elektron hisobvaraqa-faktura rasmiylashtirilganda bir vaqtning o'zida tovar-transport yuk xatini ham rasmiylashtirish talab etilishi; ushbu mahsulotlar turlari ro'yxati Mahsulotlar (tovar va xizmatlar) yagona elektron milliy katalogi kodlari bo'yicha Soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlanishi; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi PF-7-son Farmoni

15-bandining birinchi xatboshisida ko'rsatilgan muddatdan so'ng elektron hisobvaraqa-faktura va tovar-transport xati rasmiylashtirilmagan va omborlarda saqlanayotgan tovar-moddiy zaxiralar qoldiqlari soliq organlari tomonidan sanoqdan (inventarizatsiyadan) o'tkazilmaydi va soliq solish maqsadlarida soliq to'lovchining omborida mavjud emas deb hisoblanadi hamda soliq bazasini yashirish (kamaytirib ko'rsatish) deb baholanishi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hamda O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi PF-7-son Farmoni ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Namangan viloyat hokimining mazkur qarori bilan:

“Norin-Sirdaryo” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (J.Rizzayev), Qishloq xo‘jaligi boshqarmasining birinchi o‘rinbosari (N.Xudoyberdiyev), O‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi (A.Gafarov)larga, tumanlar hokimliklari bilan birgalikda:

dastlabki bosqichda viloyatda sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanuvchi subyektlar yerlari tuproqlarining tahlil ma’lumotlari, tuproq holati, xossa-xususiyatlari, unumdorligi, gumus va ozuqa miqdorlari, sho‘rlanishi, eroziyasi to‘g‘risidagi batafsil ma’lumotlarni aks ettirgan tegishli xaritalar hamda har bir kontur va ekin turiga qarab ilmiy asoslangan tavsiyalarni o‘z ichiga oluvchi “tuproqpasporti”ning 2026 - yil yakuniga qadar ishlab chiqilishini;

2027-yil hosilidan boshlab, ekinlarni joylashtirish, agrotexnik tadbirlarni o‘tkazish hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini moliyalashtirish jarayonlari “tuproq pasporti” ga muvofiqilmiy asosda amalga oshirilishini ta‘minlash choralari ko‘rish topshirilganligi;

Viloyat hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari – viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasi boshlig‘i (A.Xakimov), Namangan viloyati monopoliyaga qarshi kurashish boshqarmasi (F.Salohiddinov), “O‘zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasi” Namangan filiali (K.Axmedov)larga tumanlar hokimliklari bilan birgalikda bir oy muddatda barcha xo‘jaliklar va qayta ishlovchilar uchun birjada ishtirok etish tartibi yuzasidan o‘quv seminarini tashkil etish vasifasi yuklatilganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. Mingbuloq tuman Davlat soliq inspeksiyasi (J.Anvarov), Paxta-to‘qimachilik klasterlari va tegishli tashkilotlar bilan birgalikda, tadbirkorlik subyektlari tomonidan barcha paxta xomashyosi va uni qayta ishlashdan olingan mahsulotlar bo‘yicha mavjud tovar - moddiy zaxiralar to‘g‘risidagi ma’lumotlar 2025-yil 1-aprelga qadar soliq organlarining ma’lumotlar bazasiga kiritilishi ta‘minlansin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi PF-7-son Farmoni ilovasining 6-bandiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-noyabrdagi “Iqtisodiyot tarmoqlarida birja mexanizmlaridan foydalanishni kengaytirish hamda birja savdolarini tartibga solish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-430-son qarorining 4-bandi quyidagi tahrirda bayon etilganligi;

Bunda, belgilab qo‘yilishicha:

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan birja savdolari natijalariga ta’sir etuvchi, shu jumadan, tovar bozori ishtirokchilari hamda ular tomonidan beriladigan narxlarga cheklovlar o‘rnatish yuzasidan qarorlar qabul qilinishi yoki ko‘rsatmalar berilishi ta’qiqlanganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining tegishli qarorlariga muvofiq bozor tamoyillari asosida monopolist korxonalar va (yoki) ustav fondida (kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo‘lgan yuridik shaxslar yoki ustav fondining (kapitalining) 50 foizi va undan ortig‘i 50 foizi va undan ortiq miqdorda davlat ulushiga ega yuridik shaxsga tegishli bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan birja savdolari orqali sotilishi belgilangan yuqori likvidli, monopol va talab

yuqori bo‘lgan mahsulot turlari, xomashyo va materiallar 2027-yil 1-dekabrga qadar faqat O‘zbekiston Respublikasi tovar birjasi orqali realizatsiya qilinishi e‘tiborga olinsin.

6. Tuman hokimining o‘rinbosari – tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i, Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (X.Inomov), tegishli tashkilotlar bilan birgalikda 2025-yil 1-martga qadar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi PF-7-son Farmonning mazmun-mohiyati va amaliy ahamiyatini qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari, shu jumladan, klaster va fermer xo‘jaliklari orasida keng yoritish ishlarini tashkil qilsin.

7. Tuman Davlat soliq bo‘limi (J.Anvarov), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Z.Jurabayev), tuman “Suv yetkazib berish xizmati” DM (I.Abdullayev), Qishloq xo‘jaligi bo‘limining birinchi o‘rinbosari (A.Xakimov), Savdo-sanoat palatasining tuman bo‘limi (S.Egamberdiyev), Agrosanoat ustidan nazorat qilish inspeksiyasining tuman bo‘limi (M.Usmanov), O‘simliklar karantini va himoyasi bo‘limi (B.Abdullayev), Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (X.Inomov), tijorat banklari va tegishli tashkilotlar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi PF-7-son Farmoni talablaridan kelib chiqib ish tashkil qilsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmasida qoldiraman.

Tuman hokimi



A.Mansurov